# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

№ 5/2 2023



ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

## *2023*

## 5/2-сан

*Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.*

Нөкис

**5/2-сан *2023***

*октябрь*

***Шөлкемлестириўшилер:***

***Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги, ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы***



**Редактор:**
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурилло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Фуркат РАЖАБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Феруза САПАЕВА
Қаххор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

**Мадалиев Я.Х.** Абай ижодий меъросида адабий қарашлар ... 7
**Dosanov N.** O'zbek tilida izohlovchilarning leksik-semantik xususiyatlari ... 17
**Musurmankulova M.N.** Metophorical rethinking architectural concepts ... 20
**Berdiev B.Ch.** Healthy lifestyle in the educational system in connection with belt wrestling ... 27
**Isaqova E.D.** The analysis of appearance of feelings in the english and uzbek languages ... 31
**Yo'lchieva D.D.** Tilni retseptiv va reproduktiv egallash bilan bog'liq qiyinchiliklar ... 40

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Palwaniyazov M.** Xaliq pedagogikasinin ájayip tárbiya qurali ... 46
**Radjapova Z.T., Mirzayeva G.Z.** Integratsiyalashgan ta'limning pedagoglarni tarbiyalashdagi afzalliklari ... 51
**Тўрақулов Б.Н.** Таълим муҳитида интеллект ва компетентлилик тушунчалари ... 55
**Abdujabbarova M. L., Davlatov O.G'.** Talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlashda kompetensiya va kompetentlikning ahamiyati ... 62
**Азизова С.А.** Олий таълим муассасалари талабаларини медиа компетентлигини ривожлантиришда инновацион технологияларни ўрни ... 67
**Ismanova M. A.** Talabalarda kasbiy-kreativ ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ... 72
**Tashpulatova D.M.** Maktab ta'limida tabiiy fanlarni integratsion o'qitish metodikasi ... 76
**Kuchkinov A.Yu.** Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli ta'lim orqali ekopedagogik kompetentligini rivojlanishida eko-steam yondashuvning imkoniyatlari ... 80
**Aktamov F.S.** Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlantirish omillari ... 86
**Quzmanova G.B.** O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishda maktab umumiy fanlarining o'rni ... 94
**Tilavova S.B.** Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini steam yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari ... 98
**Umarova Z.A.** Maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish xususiyatlari ... 105
**Исламова Д.Б.** Тутинган ота-она ва бола билан ишлашда психологик мослашув методикалари тавсифи ... 112
**Xanbabayev X.I.** Raqamli kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari ... 118
**Mirzayev A.M.** Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida klaster yondashuv asosida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish ... 124
**Абдураҳимова Д.А.** Бўлажак офицерларда ҳарбий ватанпарварлик туйғусини ривожлантиришнинг миллий- маънавий ва ахлоқий асослари ... 131
**Azizova S.A.** Kredit tizimi asosida fanlararo integratsiyani rivojlantirish ... 137
**Эшбеков С.Ж.** Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнларини такомиллаштиришнинг самарали шакл, метод ва воситалари ... 141
**Эшбеков С.Ж.** Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари ... 148
**Bozorov Z. Yu.** Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir ... 152
**Xujaniyozova O.R.** Muayyan yoshdagi maktab o'quvchilari bilan samarali ishlashda maktab psixologiyasi faoliyatinning ahamiyati ... 156
**Xolmatova S. K.** Mustaqil ta'limni tashkil etishda interfaol ta'lim texnologiyalardan foydalanish ... 163
**Xolmatova S.K.** Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati ... 169
**Махкамов У.И., Тешакулова Б.Ш.** Бўлажак ўқитувчиларда педагогик маҳорат маданиятини ривожлантириш ... 173

**Норқулов У.Э.** Талабаларни электротехникадан ишлаб чиқариш жараёнига тайёрлашни ташкил этишда касбий маданиятини шакллантириш ........ 180
**Ashurov M.Sh.** Aksiologik yondashuvlar asosida talabalarda milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini takomillashtirishning shakl, metod va usullari ........ 187
**Yusupaliyeva D.Q.** Madaniyat va san'at sohasi rahbarlariga qoʻyiladigan talablar ........ 194
**Erdanova Z.O.** Al-Hakim at-Termiziy pedagogik qarashlaridan oliy ta'lim tizimida foydalanish muammosining yoritilishi ........ 205
**Muxtarova L.A.** Jahon ilm-fanida ekologik xavfsizlik masalalarini o'rganish tendensiyalari ........ 214
**Eshnazarov M.K.** Boʻlajak oʻqituvchilarni germenevtik yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ........ 224
**Таджимова Ш.Р.** Понятие коммуникативной компетенции и её компонентный состав ........ 233
**Ширбачеева Г.Ш.** Формирование профессиональной компетентности будущих педагогов ........ 239
**Suyarov K.T.** Tabiiy fanlarni oʻqitishda tadqiqot metodi ........ 245
**Равшанов Ж.Ф.** Умумтаълим мактабларида “жаҳон тарихи” фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларда таҳлилий компетенцияларни шакллантириш ........ 250
**Qodirov I.D.** Shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ........ 254

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**G'afforov O'.R.** Tibbiyotda simulyatsiya-tarixi va bugun ........ 259

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Jamilov Yu.Yu.** Talabalarning muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning peda-gogik-psixologik asoslari ........ 264
**Hakimov A.** Kreativ yondashuv asosida biofizika fanini oʻqitish samaradorligini oshirish ........ 274
**Pardaboyev J.E.** Mutaxasislik fanlarni oʻqitishda axborot komunikatsion texnologiyalari vositasini qoʻllanishning ilmiy-metodik asoslari ........ 284
**Kucharov S.A.** Texnologik jarayonlarini o'rganishda ishlab chiqarish ta'limining o'rni ........ 287
**Зарипова Д.А.** SMART-образование как средство повышения качества профессиональной подготовки в сфере информационно-коммуникационных технологий в высшем образовании ........ 306

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Dilanov B.G.** Baslwısh klass oqıwshılarında orfografiyalıq kónlikpelerdi qáliplestiriw ........ 313
**Muratkamalova R.J.** Baslawısh klaslarda Ana tili hám oqıw sawatlılıgı sabaqlarında oqıwshılardın tilin ósiriw jolları ........ 319
**Norboʻtayev X.B.** Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlikda shakllantirish metodikasi ........ 323
**Xurvalieva T. L.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlari ........ 330
**Tashmatova Sh.R.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashning pedagogik –psixalogik xususiyatlari ........ 334
**Омонбоева Н.Э.** Бошланич синф ўқувчилари билан ўқув луғатлари устида ишлаш ........ 340
**Норова И.М.** Бошланғич синфларда ўқувчиларни чиройли ёзишга ўргатиш ........ 343
**Ҳамдамова З.Ш.** Бошланғич синф ўқувчиларида тўғри талаффуз кўникмаларини шакллантиришда машқларнинг ўрни ........ 350
**Djumayeva M.M.** Boshlangʻich sinf tabiatshunoslik darslarda triz texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari ........ 357
**Axmadaliyev B.S.** Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsersiyasini amalga oshirish mexanizmlar ........ 365

**Inadullayeva S.Q.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishini shakllantiruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalari ........ 369
**Tursunova R.R.** Maktabgacha ta'lim tashkilotida tevarak-atrof bilan tanishtirishning shakllari ........ 377
**Sharapova S.T.** 6-7 yoshli bolalar bilish jarayonlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi texnologiya-laridan foydalanish metodikasining ahamiyati ........ 384
**Qulmo'minov O'. S.** Tabiiy fanlarni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashi ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 392
**Usmonova S.E.** Boshlangich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish pedagogik muammo sifatida ........ 396
**Eshpulatova J.E.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobliyatini rivojlantirish mezonlari ........ 404
**Pardayeva G.J.** Tabiiy fanlarni o`qitishda STEAM texnologiyasining ahamiyati va undan foyda-lanish ........ 411
**Suyunov D.A.** Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tafakkurni takomillashtirish ........ 416
**Saidaxmadova N.S.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi shakllantirishning ahamiyati ........ 426
**Saidaxmadova N.S.** O'qish savodxonligi darslarida kreativ fikrlash kompetentsiyasini shakllantirish metodikasi ........ 431
**Pardayeva G. J.** STEAM ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish ........ 436
**Usmonova S.E.** Boshlangich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash metodi-kasini takomillashtirish ........ 445
**Turayev A.M.** Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik-metodologik tayyorgarligini takomillashtirish ........ 453
**Daminova D.M.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ........ 458
**Umbarova N.X.** Boshlang'ich sinf texnologiya darslarini tashkil etish va o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari ........ 464
**Mamatmuminova M.G.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning kognitiv jarayonlarni rivojlantirishdagi o'rni ........ 473
**Kadirova Sh.X.** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda oilaning ahamiyati ........ 480
**Altibayeva G. M.** Innovatsion texnologiyalar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlari usul va metodlari ........ 491
**Allaberdiyeva K.X.** Ota-ona va tarbiyachi-pedagoglarning maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik texnologiyasini shakllantirishning usullari ........ 500
**Allaberdiyeva K.X.** Bolalarning ijodiy fikrlash faolligini rivojlantirishda xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari tajribalari ........ 507
**Karimova K.R., To'rayeva O. R.** Boshlang'ich sinf matematika darslarida topshiriqlar asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ........ 518

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

**Mambetqasimova Q.** Student-jaslardıń dene tárbiyası sistemasında jeńil atletikanıń tutqan ornı ........ 524
**Кошкаров Ж.Т.** Белбоғли кураш машғулотларини такомиллаштириш механизмлари ........ 528
**Мирзахалилов А.Х.** Таълим тизимида туризимни ривожлантириш ўзига хос хусусиятлари ........ 532
**Sultonov H.D.** Sambochilarning hujum va ximoya darajasini aniqlash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari ........ 537

**Ibodullayev B.** Kurash mashg'ulotlarini rejalashtirish va takomillashtirish ..... 544
**Матниязов Х.К.** Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчилари узлуксиз педагогик амалиётининг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш ..... 550
**Meyliyev X., Ro`zmetov K.** Dzyudochilarning tayyorgarlik tomonlarining integratsiyalashuvining mazmuni va vositalari ..... 558
**Latipov R. I.** Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish mazmuni va shakllari ..... 562
**Latipov R. I.** Mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etish orqali jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy madaniyatini shakllashtirish ..... 567
**Djoldasov R.F.** Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalash ..... 574
**Nizambayev M. A.** Badminton darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish ..... 580
**Nizambayev M.A.** Sog'lomlashtiruvchi va eng jozibali sport turi badminton ..... 584
**Maxmudov B.A.** Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmi mazmunini modernizatsiyalashning tasnifiy xususiyatlari ..... 588
**Haydarov B.T.** Kichik yoshdagi bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy vositalar asosida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ..... 593
**Xolboyeva G.X.** Jismoniy madaniyat mutaxasislarini tayyorlashda kasbiy, gumanitar, mintaqaviy-milliy konsepsiyaviy potensialini oshirish ..... 600
**Qosimov F. J.** Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari ..... 608
**Mexmonov R.N., Mamadova F.M.** Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini o'stiruvchi jismoniy mashqlarni tasniflash ..... 615
**Ярашев К.Д.** Жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабаларда бошқарувчилик тафаккурини шакллантириш, уларнинг бошқарув компетентлигини ошириш омили сифатида ..... 622
**Bo'riyeva G. I.** Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qtuvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari ..... 630
**Усмонов Э.М.** Профессионал спортчилар психологик тайёргарлигининг юқори спорт натижаларига таъсири ..... 635
**Миршарапов А. Г.** Спортивные игры как средство формирования основных физических качеств у курсантов академии МВД Республики Узбекистан ..... 643
**Мирзаев А.М.** Влияние кластерного метода на будущее развитие военного образования ..... 647
**Begimkulov O. J.** Physical qualities of national wrestling ..... 653
**Kaypov S. B.** Kurash sportida taktik tayyorgarlikning maqsadi va vazifalari ..... 659

# SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

***Qodirov I.D.***
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, jamiyat, kompetentlik, innovatsiya, inovatsion ta’lim, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri, tarbiya, texnologiya.

**Ключевые слова:** Образование, общество, компетентность, инновации, инновационное образование, инновационный кластер педагогического образования, образование, технологии.

**Keywords:** Education, society, competence, innovation, innovative education, innovative cluster of pedagogical education, education, technology.

Jamiyatimizni ilm-fanning so‘nggi yutuqlari asosida taraqqiy ettirish, yurtimizda fan-texnika va texnologiyaning rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish, mamlakat hayotini takomillashtirish zamirida yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash mujassamki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning yuksak bilim darajasiga yega bo‘lishlarini ta’minlash bilan birga, XXI asrda turgan murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal yetishdek jiddiy mas’uliyat yuklaydi. Shu boisdan ham shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Negaki, 2022- yilning 15-noyabrida bo‘lib o‘tgan “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon” konferensiyasi ochilish marosimida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “keyingi yillarda oliy o‘quv muassasalari soni qariyb 2,5 barobar ko‘payib, 186 taga yetdi. Ularning 31 tasi dunyodagi yetakchi universitet va institutlarning filiallaridir. Oliygohlarga qabul kvotasi 3,5 barobar ortganini, oliy ta’lim qamrovi yesa 9 foizdan 38 foizga oshganini qayd yetish lozim” [1] deya ta’kidladilar. Bu yesa, oliy ta’lim qamrovining oshishi, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan nafaqat oliy ta’lim muassasasi, balki butun bir jamiyat manfaatdorligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, “ijtimoiy sherikchilik tizimi rivojlanib borayotgan bir davrda, mehnat bozorini yegallash va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozorini ta’minlash maqsadida

har qanday muassasa, xoh ishlab chiqarish, xoh loyihalashtiruvchi, xoh ta'lim-tarbiya muassasasi bo'lmasin, o'zining jamoasi safida yetuk mutaxassislarning faoliyat yuritishidan manfaatdordir" [2].

Buning uchun asosiy vazifalar sifatida, oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi kadrlarini tayyorlashda quyidagilarga ye'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

talabalarning kasbiy kompetentligini doimiy oshirib borish uchun ta'lim muassasasi doirasida professor-o'qituvchilar reytingini maktab amaliyotiga, xususan, fanlarni o'qitish sifatiga bog'liq mezonlar asosida belgilash;

kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori talab va takliflaridan kelib chiqqan holda monitoringini amalga oshirish va takomillashuvini ta'minlashga yerishish;

talabalarda o'zi tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligidan g'ururlanish hissini shakllantirish uchun turli mutaxassislikka oid bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishga ye'tibor qaratish bilan birga, talabalar o'rtasida psixologik-motivatsion, iqtisodiy-tadbirkorlik va ma'rifiy-huquqiy tadbirlarni joriy yetish maqsadga muvofiq.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talaba yoshlar kamoloti va ularning ta'lim-tarbiya jarayonini doimiy tarzda takomillashtirib borishni taqozo yetmoqda. Buning sababini, bir tomondan, inson qalbi va ongi uchun shiddatli kurashning turli shakl va ko'rinishlarda avj olib borayotgan xavf-xatar va tahdidlar bilan, ikkinchi tomondan, fan-texnika taraqqiyotining jadallashuv va mehnat bozoridagi talab hamda taklifning o'zgarishi bilan izohlash mumkin. Shu boisdan ham talabalarni har tomonlama raqobatbardosh kadr sifatida tarbiyalashga asosiy ye'tiborni qaratish, ularni zamon va makon talablariga monand tarzda kasbiy kompetentligini rivojlantirish, milliy manfaatlarimizni himoya qilish yo'lida olib borilayotgan ishlarning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

Agarda talabalik yoshlar hayotining yeng muhim rivojlanish davri yekanligini inobatga olsak, tadqiqotchi Z.R. Isaqovaning ta'biri bilan aytganda, "bu davrda yoshlar ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy, ham huquqiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy jihatdan kamolga yetadilar, hayot ma'nosini chuqurroq, anglaydilar, jamiyatda o'z o'rnilarini topish yo'lida izlanadilar. Bu davrda yoshlar ongida yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi. Talabalik orzu va ishonchlar, kelajakka intilish, bo'lajak rejalarning shakllanish davridir" [3]. Shu sababli ham tadqiqotchi N. Mamadaliyevaning yozishicha, "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi quyidagi maqsadlarga yerishishni nazarda tutadi:

- innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy yetish asosida innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish;
- ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash;
- pedagogik kadrlarni kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- yangi texnologiyalarda foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish;
- kasbiy masalalarni yechishga talabalarni ijodiy yondashadigan va mas'uliyatli qilib tarbiyalash" [4].

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri zamonaviy pedagogikada kasbiy tayyorgarlik asosini tashkil yetuvchi muhim masalalardan biri bo'lib, bu borada turli xil ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilib, ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha bir qator ishlar e'lon qilinganini kuzatishimiz mumkin [5]. Xususan, an'anaviy, amaliy bilimga, tizimli va shaxs faoliyatiga asoslangan hamda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari zamonaviy ta'limning mazmunini tashkil yetmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, kasbiy kompetensiyani ta'lim texnologiyalari asosida zamonaviy yondashuv va qulay shart-sharoitlar negizida shakllantirish masalalari yagona ta'lim makonini ta'minlashda zamin bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi S.A. Haydarovning fikricha, "ta'lim jarayoniga yangicha yondashish, uni didaktik jihatdan ta'minlash, ta'lim mazmunini tarixiy manbalar asosida takomillashtirish vositasida o'quvchilarning tarixiy bilimlari va tafakkurini boyitish milliy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir" [6].

Pedagogikaga oid manbalarda, antropotsentrizm pedagogikasiga nisbatan talabalarning kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish samaradorligining asosiy mezoni sifatida qaralib, bunda ta'lim jarayonining muhim maqsadi sifatida talaba o'zini o'zi anglashi, ongli faoliyatni amalga oshirishi, o'z qobiliyatini bilishi va baholashi hamda o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan yehtiyojlarini real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ilmiy va falsafiy kognitiv munosabatlar doirasida yondashuvi nazarda tutiladi [7].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda talaba shaxsiga xos individual xususiyatlar muhim rol o'ynaydi. Bunda, ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik jarayonni tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- ta'limiy qadriyatlar va zamonaviy turmush tarzi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash;

- tanqidiy yondashuv va taqdim etilayotgan vazifa hamda topshiriqlarga kreativ yondashish ko‘nikmasini shakllantirish;
- ta’lim jarayonida ongli faoliyat iroda kuchini safarbar etish va maqsadga erishishda o‘zini o‘zi boshqarish;
- refleksiv faoliyatni amalga oshirish, ya’ni o‘zini o‘zi bilish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, holatlarini aniqlash, qobiliyatlarini anglash va xatti-harakatlarini tahlil qilish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini hamda ijodiy o‘zini o‘zi anglash va shaxsiy qadriyat tushunchasini unga muvofiqlashtirish;
- qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni his etish va faol ongli faoliyatni tashkillashtirish.

XXI asrda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi dunyoda, zamon talabiga javob bera olmaydigan turli ijtimoiy me’yorlarni, hayotiy reallikdan kelib chiqqan holda boshqasi bilan transformatsiyalash talab etilmoqda. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimida ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan maqsadli foydalanish masalalari borgan sari dolzarblashib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim jihati shundaki, bunda kasbiy barqarorlik va kasbiy ustuvorlik elementlari mujassam bo‘lib, istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan talaba shaxsida mobillik xususiyatlarini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon” konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. 2022 yil 15 noyabr. https://president.uz/uz/lists/view/5696

2. Кокорев И.А. Управление персоналом в рамках концепции человеческого капитала. – М.: 2002. -С.34.

3. Isaqova Z.R. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar-yoshlar ma’naviy kamolotining muhim omili. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021- yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini jamiyatga tatbiq qilishda falsafa fanining o‘rni va ahamiyati. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Farg‘ona: FarDU, 2019. – B. 78-80.

4. Mamadaliyeva N. Ta’lim jarayoni sifatini boshqarishning sotsial muammolari. Axborotlashgan jamiyatda zamonaviy sotsiologiyaning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zMU, 2019. -B. 35-38.5. O’quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari. – T.: TDIU, 2005. 60-bet.

5. Muxamedov G‘.I., Xo‘jamqulov U.N. Klaster ta’limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida // Ta’lim, fan va innovatsiya, 2020/2-son. -B.22.

6. Haydarov S.A. Tasviriy san’at asarlari vositasida «O‘zbekiston tarixi» darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari (tarixiy miniatyuralar misolida. Ped.f.b.f.d. (PhD) ... dic. avtoreferati. – Namangan, 2019. – 44 b.

7. Pedagogika ensiklopediya. / Mas'ul muharrir R.Safarova. I jild. A-Ya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. - 320 b.

**РЕЗЮМЕ**

Maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishnoing samaradorligi va uning afzallilari xususida so'z yuritiladi.

**РЕЗЮМЕ**

В статье говорится об эффективности и преимуществах развития профессиональной компетентности студентов на основе персонализированных образовательных технологий.

**SUMMARY**

The article talks about the effectiveness and advantages of developing the professional competence of students on the basis of personalized educational technologies.